

## MUNIS XORAZMIY VA “SAVODI TA’LIM” ASARINING PEDOGOGIK MOHIYATI

*Olimova Xandona Anvarjon qizi*

*Ibragimova Durdona Doniyorbek qizi*

*Jalilova Zebiniso Abdulaziz qizi*

*Andijon davlat chet tillari instituti talabalari*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asarining didaktik ahamiyati, pedagogik qarashlarining mohiyati, xalqparvarlik g‘oyalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, odob, bilim, savodxonlik, mehroqibat, din, saxiylik vatanparvarlik, rostgo‘ylik, do‘stlik, komil inson, adolat, ma’rifat, axloqiy poklik, ma’rifatparvarlik.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilan bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan bo‘ladi. Mana shu ikkala hislatni chuqur o‘rganib, o‘zida mujassam etgan insongina yetuk, o‘zidan keyingi avlodlarga ham savodi ta’lim tushunchasini saqlab, yangiliklar bilan to‘ldirib, yetkazib beradigan mukammal shaxs hisoblanadi. Munis Xorazmiy 1778-yilda Xiva tumanining Qiyot qishlog‘ida mirob oilasida tavallud topadi. Dastlabki ta’limni maktabdagagi qishloqda oladi, keyin o‘qishni madrasada davom ettiradi. Munis Xorazmiy, Xisrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Navoi, Jomiy, Bedil kabi buyuk allomalarimiz asarlarini mukammal o‘qib o‘rganadi. Uning mana shunday ilmli bo‘lishida, kamolotida o‘z davrining ma’rifatparvarlaridan bo‘lgan otasi Amir Avazbiyning o‘rni katta. Munis o‘z she’riy asarlarini to‘plab, 1815-yilda “Munis ul ushshoq” (“Oshiqlar do‘sti”) nomli devon tuzadi. “Firdavs ul-iqbol” (“Baxt bog‘i”), “Savodi ta’lim” asarlarini yozadi. Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari husnixatga doir dastlabki qo‘llanma sifatida ishlatilgan. Munis Xorazmiy o‘z davrining

yetuk murabiy shoiri sifatida bolalarning savodxonligini va husnixatini yaxshilash yo‘lida juda ko‘p izlanadi va yoshlarga husnixatdan ta’lim berib, “bilgancha surib qalamni har yon, ta’lim ishin aylar erdi oson” deydi. “Bilimning eshigi alifbe” deganlaridek, Munis ham ta’limdagi muvaffaqiyatlarning garovi savod ekanligini tushungan va shuning uchun “umumiy arqom” yozuv ilmini yaratishga bel bog‘lagan. Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari ana shu tarzda 1804-yil 6-dekabr kuni vujudga keladi. Mazkur risola nazariy ma’lumotlar va amaliy mashqlarni o‘z ichiga olgan. Risola ikki qismdan tarkib topgandir, “Savodi ta’lim”ning nazariy qismida o‘zining davrigacha mavjud bo‘lgan bolalarga xat-savod o‘rgatuvchi risolalarning barcha nuqson kamchiliklarini o‘rganib ochib tashlaydi va eski risola bilan o‘zi yaratayotgan risolani bir biri bilan taqqoslab, eski risolaning o‘scha kungi talablarga javob bera olmasligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Risolaning ikkinchi qismida esa arab alifbosidagi har bir harfning yozilish uslubini ma’rifiy-didaktik nuqtai nazardan sodda va tushunarli qilib tushuntirishga harakat qiladi. Munis Xorazmiy o‘zining “Savodi ta’lim” asarida ilm-fan, ma’rifat, maktab, o‘quv-tarbiyga doir fikr mulohazalarini batafsil, sodda va tushunarli qilib yoritgan. Bu asarning birinchi qismida harflarni mashq qilishda tayyorgarlik masalalarini tushuntirsa, ikkinchi qismida esa xat mashqi va uning usuli haqida amaliy ishlarni bayon qiladi. Munis “Savodi ta’lim” asarida donishmandning ilmga bo‘lgan e’tiqodi uning o‘z xatida aks etishini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, xatni chiroyli, husndor va xatosiz yozilishining tarbiyaviy ahamiyatini, kishilik jamiyatida yozuvning katta o‘ringa ega ekanligini qayd qilib shunday bayon qiladi:

So‘z mahzanining nishonasi ham,

Ma’ni durining xazonasi ham,

Har so‘zki, ko‘nguldin o‘ldi mavjud,

Xat bo‘lmasa bo‘lg‘ay erdi nobud.

Munis tarjimon sifatida XV asrda yashab ijod etgan tarixchi Mirxondning “Ravzat us-safo” asarining birinchi va ikkinchi jildini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Munis

ma'rifatparvar shoir sifatida o'z zamonasining ilg'or ma'rifatparvari edi. Shoir o'z she'rlarida tarbiya masalalarining zarurligini uqtirdi. U insonga xos bo'lgan barcha fazilatlarni faqatgina bilim olish, ilm orqaligina tarbiyalash lozimligini ko'rsatib bergen. Munis Xorazmiy og'ir vabo kasalligi tufayli 1829-yilda vafot etadi. Munis asarlari bilan tarbiya masalalariga katta e'tibor qaratdi. Uning didaktikasi insonni yuksak oliyjanoblik, halol ilmgaga chancoq, mehr-u oqibatli bo'lishga qaratilgan. Munisning adabiy va pedagogik g'oyalari maktablarda to'g'ri chiroyli yozuv tartib-qoidalarini o'rgatish uslubi sifatida xizmat qilgan va qilib kelmoqda. Ko'rinib turibdiki, iste'dodli shoir, xattot va tarjimon, tarixshunos olim Munis Xorazmiy o'z asarlarida insonlarni mardlik, rostgo'ylik, diniy qarashlar, ahloqiy poklik, vatanparvarlik, do'stlik, mehr-oqibat va vafo ruhida savod berish, tarbiyalash eng avvalo, ta'lim, ilm orqali amalga oshirilishini ochib bergen. Munis ilmni shunchalik qadrlaganki, tinmasdan o'qib, izlanib uni yanada boyitib, o'z xalqi, kelajagi uchun yonib-kuyib, kurashib, bolalarga savod ta'limini erinmasdan berishga, husnixati chiroyli bo'lishiga beminnat yordam bergen. Munisning mana shunday qilgan izlanishlari boy merosi biz kelajak avlodning tarbiyasida ham muhim o'rin tutib kelmoqda. Yosh avlodlarga savod, ta'lim, tarbiya, bilim berishda, nafaqat bilim berish bilan bir qatorda hayotiy saboqlarni o'qitishda Munis Xorazmiy kabi mutafakkir ustozlarimizdan juda ko'p mehnat, o'qish, izlanish, tajriba va sabr talab etilgan. Ustozdagagi fidoyilikni, shogirdga bo'lgan muhabbatni, odamiylik, insoniylikdan saboq, ta'lim berib hayotga tayyorlagan ustozlarimizni doimo ardoq va e'zozlashimiz, hurmat qilishimiz kerak. Avvalo, insonni inson qilib tarbiyalash, haq yo'liga solish, alifboning hattoki bir harfini o'qitgan ustozimizni haqqini yuzlab boyliklar bilan ham uzib ado qila olmasak kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Shermuhammad Munis. Tanlangan asarlar. uzdavbadiiy adabiyot nashriyoti. T. 1957-y 394-b.
2. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aaifpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.
3. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в

современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94. Retrieved from <http://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/5122>.

4. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131. Retrieved from <https://provinciajournal.com/index.php/telematique/article/view/984>.

5. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY". – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.

6. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251614>.

7. Madaminjonovna M. M. Umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.

8. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251637>.

9. Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo ‘naltirib o ‘qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.

10. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJHCS/article/view/4083>.

11. МИРЗАКАРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. – 2022. – №. 1. – С. 1-128. Retrieved from <http://novateurpublication.org/index.php/np/article/view/23>.

12. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO ‘NALTIRIB O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – С. 1-128.

13. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – С. 410-415. Retrieved from <https://research-edu.com/index.php/namdu/article/view/309>.

14. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O’zbekistonda chiqindilarni qayta ishslash muammolarini o’rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 11. – С. 78-83. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6393>.

15. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 12. – С. 321-324. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6486>

16. Mirzakarimova M. M. et al. “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 224-228. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6696>

17. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanshi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 3. – С. 264-269. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6821>.